

PAPER

O‘ZBEKISTON TARIXI FANI O‘QITUVCHISI IMIJINING KOGNITIV-SHAXSIY KOMPONENTLARI: DATA-DRIVEN YONDASHUV

Teshayev Azizbek To‘ynor o‘g‘li ^{1,*}

¹ p.f.f.d (PhD) Buxoro Innovatsiyalar Universiteti o‘qituvchisi

* teshayev@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston tarixi fani o‘qituvchisining kasbiy imiji va kompetensiyalari masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda "Data Science" (ma'lumotlar fani) yutuqlaridan foydalangan holda, 2030-yilga borib pedagogik faoliyatda kutilayotgan o'zgarishlar va o'qituvchining kognitiv-shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar bashorat qilingan. Maqolada tarixchi o'qituvchining raqamli portreti, uning Big Data bilan ishlash qobiliyati va neyropedagogik tayyorgarligi o'quv samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Key words: Data science, O‘zbekiston tarixi, kasbiy kompetentlik, kognitiv-shaxsiy sifatlar, Big Data, raqamli transformatsiya, bashoratli modellash, 2030-konsepsiya.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiyani boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida PISA reytingi bo'yicha dunyoning ilg'or 30 ta mamlakati qatoriga kirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Ushbu jarayonda "Data Science" tadqiqotlari — ma'lumotlardan bilim va tushunchalarni chiqarish uchun statistik va matematik usullarni qo'llash — o'qituvchi

faoliyatini baholash va bashorat qilishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Globalizatsiya davrida "raqamli talabalar" ehtiyojini qondirish uchun tarix fani o'qituvchisi nafaqat akademik bilimga, balki yuqori darajadagi raqamli savodxonlikka ham ega bo'lishi lozim. Maqolaning maqsadi — ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) yondashuv orqali bo'lajak tarixchi o'qituvchining professional imijini tashkil etuvchi kognitiv va shaxsiy sifatlarini aniqlashdir.

Compiled on: February 16, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Bashoratli modellash (Predictive Modeling): Arizona shtati universiteti va Nyu-York ta'lim departamenti tajribasiga tayanib, o'qituvchilar samaradorligini ma'lumotlar asosida tahlil qilish.

Tizimli tahlil: 2030-yilgacha bo'lgan ta'lim transformatsiyasi trendlarini O'zbekiston tarixi fani darslariga tatbiq etish.

Kompetensiyaviy yondashuv: O'qituvchi imijini aniqlovchi kognitiv-shaxsiy komponentlarni tasniflash.

Data Science tamoyillari: Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va ta'lim patternlarini tahlil qilish orqali individual o'qitish trayektoriyasini yaratish usullarini o'rganish.

Natijalar

Tadqiqot natijasida 2030-yilga kelib tarix fani o'qituvchisining kompetentlik darajasi quyidagi yangi komponentlar bilan boyishi aniqlandi:

Raqamli tahlil ko'nikmasi: O'qituvchi nafaqat dars o'tadi, balki sun'iy intellekt yordamida o'quvchining qobiliyat xaritasini (pattern) tuzadi.

Kasbiy transformatsiya: O'qituvchi o'z o'rnida moderator, tyutor, onlayn platforma koordinatori va loyiha boshqaruvchisi vazifalarini bajaradi.

Sifat ko'rsatkichlari: Tadqiqot doirasida tarixchi o'qituvchi uchun zarur bo'lgan 7 ta asosiy kompetentlik bloki ishlab chiqildi:

1. Pedagogik kompetentlik.
2. Kommunikativ kompetentlik.
3. AKT va media-savodxonlik.
4. O'z-o'zini rivojlantirish.
5. Mas'uliyat va moslashuvchanlik.
6. Inkluziv ta'lim ko'nikmasi.
7. Xolisona baholash mahorati.

Munozara (Discussion) "Data science" tadqiqotlari bu "ma'lumot ilmi" ham yuritiladi, ya'ni ma'lumotlardan bilimlar va tushunchalarni chiqarish uchun statistik, matematik va kompyuter fanlarini qo'llagan ko'p tarmoqli fan sohasidir. ular quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan: Keng masshtabli ma'lumotlarni to'plash, tozalash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish; oldingaish modellarini, mashina o'rganish algoritmlarini va statistik usullarni ishlab chiqish va qo'llash;

ma'lumotlardan tushunchalarni chiqarish, tendensiyalarni aniqlash va qarorlar qabul qilishga yordam beradigan bilimlarni yaratish kabilar shular jumlasidandir. Ushbu tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini amalga oshirgan ishlari, mahorat darajasi, erishilgan natijalari asosida bashorat qilish orqali qo'llaniladi va muammolarni erta aniqlash, ularga qo'shimcha yordam ko'rsatish imkonini yaratadi.

Arizona shtati universitetida "Data science" tadqiqotlaridan foydalangan holda o'quvchilarning o'qish natijalarini bashorat qilish va ularga amaliy yordam berishni ta'minlovchi model ishlab chiqdi. Nyu-York shahri ta'lim departamenti tomonidan "Data science" tadqiqotlaridan foydalangan holda o'qituvchilarning samadorligini baholash va o'qitish amaliyotini yaxshilash uchun vosita yaratildi.

Xan akademiyasida "Data science" tadqiqotlaridan foydalangan holda har bir o'quvchi uchun moslashtirilgan o'qitish tajribasini yaratish uchun platforma ishlab chiqdi. Barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun siyosatchilar va ta'lim rahbarlariga tavsiyalar ishlab chiqdi.

Mamlakatimizda Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish jarayoni tizimli olib borilmoqda. Ushbu dolzarblik asosida O'zbekiston Respublikasi o'quvchilar bilimini Xalqaro baholash PISA (The Programme for International Student Assessment) dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoridan joy olishi belgilab qo'yilgan bo'lib, xalqaro ekspertlarning fikricha, 2030-yilda ta'lim tizimida faol pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiya yuz berishi kutilmoqda. Ushbu jarayonga baho beradigan bo'lsak, ekspertlarning xulosalari va bashoratlariga asoslanib, quyidagilarni taxmin qilish imkoniga ega bo'lamiz:

-o'qitish metodikasi va ta'lim-tarbiya jarayoni har bir ta'lim oluvchi uchun individual;

-ta'limda san'at, kreativlik va akademik bilimlarni o'zlashtirishning mukammal mexanizmi amalda;

-xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, ijtimoiy gumanitar, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha STEAM standartlar, dastur hamda darsliklar joriy etilgan;

-talabalarning qobiliyatini rivojlantirish,

mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun barcha texnik va texnologik sharoitlar mavjud.

- fan olimpiadalarini o'tkazish mezonlari xalqaro olimpiada va musobaqalarning baholash mezonlari asosida;

- iqtidorli talabalar "onlayn olimpiada va sun'iy intellekt" yordamida aniqlanadi, tanlovning barcha bosqichlarida shaffoflik ta'minlangan;

- ota-onalar o'quv-tarbiya jarayonida va uni dinamikasini uzluksiz kuzatishda faol ishtirok etadi;

- imkoniyati cheklanganlarning ta'lim olishi, jamiyat va jamoaga integratsiya qilish uchun tashkiliy-texnologik ishlar amalda, barcha ta'lim bosqichlari defektolog hamda psixologlar bilan ta'minlangan;

- yoshlarni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko'tarilgan. O'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning raqamli, innovatsion shakllari va usullari joriy etilgan;

- ta'lim tizimi mazmuni uzluksiz ravishda o'zgarib turadi, variativ va intensiv o'quv dasturlari amalda, kadrlar malakasini oshirish onlayn rejimda.

Globalizatsiya jarayoni yuz berayotgan, internet, sun'iy intellekt texnologiyalari jadal kirib kelayotgan, ta'limda pedagogik va texnologik transformatsiyalar yuz berayotgan bir vaqtda pedagogning kasbiy sifatlari, kompetensiyalari, talabaning raqamli portreti, xususan ta'lim jarayoni qanday bo'lishi kerak?, degan savolga javob berishga harakat qilib ko'rdik.

Raqamli davrda "Raqamli talabalar" analog "O'qituvchilar" va "ota-onalar"ga nisbatan tezroq fikrlaydigan va ko'proq ma'lumotga ishlov bera oladigan kompetensiyalarga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayoni insonning, oilaning, professional hamjamiyatning, biznes va davlatning talablariga mos va adekvat tarzda javob berishi darkor. Shu shartlar qondirilgan ta'lim tizimi bitiruvchisigina mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erisha olishi kafolotlanadi.

Texnika va texnologiya ishlab chiqaradigan katta korporatsiyalar rivojlanish jarayonidagi tezkorlikda yangidan-yangi ish o'rinlarini yaratadi, kreativ va nostandart tarzda fikrlaydigan ishchilarga ehtiyoj ortadi. Ta'lim tizimidagi eng katta muammo taraqqiyot va ta'limning rivojlanish darajalari o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga aylanadi. Raqamli

va katta hajmdagi axborot davrida, ta'lim oluvchi muvaffaqiyatli va tadbirkor bo'lish uchun qanday kompetensiyalarga ega bo'lish kerak degan mulohazani o'rta tashlaganimizda an'anaviy ta'lim tizimida qayd etilgan kompetensiya va xususiyatlarga ega o'quvchini tarbiyalash juda ham murakkab ish.

Qayd etilgan texnologik, pedagogik va ijtimoiy transformatsiyalar yuz bergan vaqtda bo'lajak tarix fani o'qituvchisi qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak?

Xalqaro ekspertlarning tahliliy xulosalariga ko'ra, 2030-yilda talaba:

- akademik bilimga ega, bazaviy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay oladi;

- kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallagan, zarur holatlarda murakkab nostandart masala va muammolarni yecha oladi;

- kreativ fikrlaydi, yuzaga kelgan muammoni matematik va mantiqiy qonuniyat asosida ijodiy yondoshgan holda hal etadi;

- yuqori saviyadagi shaxsiy sifatlarga, ya'ni tez o'zgaradigan muhitga moslashuvchan, jamoa bilan tez til topishadigan, yuqori madaniyatga va intellektga, liderlik kompetensiyalarga ega;

- axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori saviyada egallagan;

- bir nechta xorijiy tillarni biladi.

2030-yilda fan o'qituvchisining kompetentlik darajasi:

- pedagog bir nechta xorijiy tillarni mukammal egallagan;

- axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori darajada biladi;

- neyrotarmoq, neyro pedagogika, neyropsixologiya yo'nalishlarida kompetent;

- katta hajmdagi raqamli ma'lumot (Big data) bilan ishlay oladi;

- data science yo'nalishida ilmiy izlanishlarda ishtirok etadi;

- tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarning haqiqiy manbalari bilan ishlash kompetensiyalarini yuqori darajada egallagan;

- ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish va rejalashtirish borasida professional;

- katta hajmdagi bilimlar, axborot paketlari bilan ishlashda ustozlik qila oladi;

- ta'lim patternlarini matematik va psixologik jihatlarini tahlil qila oladi;

-vizualizatsiya va ta'lim didaktikasi masalalarida doimo izlanishlar olib borish mahorati va qobiliyatiga ega bo'ladi, degan bashoratlar aynan bugungi ta'limning sifati va natijadorligi bilan belgilanadi.

2030-yilda asosiy bilim olish kontenti, ta'lim mazmuni internet resurslari orqali taqdim etiladi. Klassik shakldagi darsliklar, o'quv kontentini o'zlashtirish uchun kalit, ya'ni o'quv kontentini tezroq o'zlashtirish uchun ko'rsatma sifatida xizmat qiladi. Badiiy adabiyot va kitobxonlik jamiyatdagi eng zo'r trendga aylanadi.

Tizim ta'lim berishning har xil shakllaridan, faoliyatning to'ldirilgan borliq prinsipidagi simulatorlaridan, ma'lum bir kompetensiyalarni shakllantirish uchun virtual o'yinlardan foydalanadi.

Ta'lim patternlari- insonning kundalik hayotidagi faoliyatining instinkt darajasidagi avtomatlashtirilgan sxemasi yoki modellaridan faol foydalanish boshlanadi. Kompyuterdagi dasturlar va virtual simulatorlardan foydalanish jarayonida Siz ma'lum bir amallarni qandaydir chastotada qayta-qayta bajarasiz, mana shu harakatlardan sodir bo'ladigan ma'lumot birligini pattern deyiladi.

Barcha harakatlar tizimda qayd etiladi va bu ma'lumotlar sun'iy intellekt yordamida qayta ishlanadi. Shu qayta ishlangan ma'lumotlar asosida o'quvchining imkoniyatlari, qobiliyatlari va bo'lajak kasbini tanlashdagi moyilliklari xaritasi tuziladi.

Har bir talabaning imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan, individual dasturlar yaratiladi. Baholashda birinchi o'ringa talabaning shaxsiy sifatlari, ko'nikmalari, ya'ni tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish, liderlik, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, jismoniy faollik darajalari, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlarni hisobga olinadi. Qayd etilgan barcha sifat va kompetensiyalar akademik bilimlar bilan birga baholanadi. Sun'iy intellekt uni barcha harakatlarini baholaydi. Olingan natijalar asnosida kasb tanlash uchun yo'llanma yoki tavsiyalar beriladi.

2030-yilga kelib o'qituvchi o'z o'rnida moderator, tyutor, ta'lim trayektoriyasini loyihalashtiruvchi mutaxassis (metodist), onlayn ta'lim platformasi koordinatori, loyiha asosida o'qitadigan pedagog, o'yin asosida o'qituvchi

pedagog, robototexnika asoslarini o'rgatuvchi muhandis-pedagog sifatida o'z vazifasini o'zgartirib boradi.


"O'zbekiston tarixi" fanidan dars beradigan o'qituvchi avvalo yuqori darajadagi shaxsiy sifatlarga ega, o'quvchilar bilan o'zaro muloqotga kirisha oladigan, sabrli va e'tiborli, mehnatsevar, bilimli, va tashabbuskor, izlanuvchan, tarixiy bilimlarni puxta o'zlashtirgan, ma'suliyatli shaxs bo'lishi shart.

Shu bilan birga o'qituvchi mazkur fanning nazariyasi, amaliyoti va muammolarini, fanning maqsadi, ma'naviy-ma'rifiy talablarini bilishi, fan doirasida ilmiy tadqiqotlarga qiziqishi, ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sifatli va to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi tarix fanidan mavzularni avvalo o'zi yaxshi bilishi va ta'lim materiallariga asosli ravishda ularni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchining tashabbuskorlik, ishonchlilik va mehnatsevarlik kabi sifatlari ta'lim oluvchilar uchun ibrat va namuna bo'lishini unutmash zarur.

Ma'lumki, bugungi ta'limning xalqarolashuvi jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlash, milliy qadriyatlarni o'z mazmuniga singdirgan, bilimlarga asoslangan jamiyat mezonlariga javob beradigan malakali mutaxassis kadrlarni yetkazib berish vazifalarini sifatli amalga oshirishdan iborat.

Aynan milliy ta'lum dasturlarida belgilangan ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talaba yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi g'oyalarni yaratish, yuzaga keladigan muammolarni oldindan ko'ra bilish va unga yechim topish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish har bir pedagog faoliyatiga qo'yilgan ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushbu dolzarblikdan kelib chiqib, bugungi kun o'qituvchisi davrga moslashish, hayot bilan hamnafas qadam tashlash, o'zini uzluksiz rivojlantirib borish, ta'lim va tarbiya berishda yangi g'oyalarni qabul qilishga

tayyor, ehtiyojlarga asoslangan jamiyatda o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ravishda ijodkorlik ko'nikmalarini puxta egallagan bunyodkor shaxs sifatida o'zini namoyon eta olishi shart. Tarix fani o'qituvchisi ham yuqorida e'tirof etilgan kasbiy va shaxsiy sifatlarni o'zida mujassam ettirgan holda o'z kasbiy faoliyatiga tayyorligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan bir qator asosiy talablarni bilishi va ularning mazmunini anglagan bo'lishi lozim



1-rasm. O'qituvchining kasbiy faoliyat darajasini belgilovchi asosiy talablar

Tarix fanini o'qitishda o'qituvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy kompetentligiga qo'yilgan ushbu talab va kompetensiyalar, o'ziga xos pedagogik, psixologik, akmeologik, ijtimoiylik kabi mezonlarga asoslanib, takomillashtirilib boriladi va o'quv jarayonining muvaffaqiyatli va samarali bo'lishini ta'minlashni kafolatlaydi. Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari kasbiy kompetentligini baholash mezonlari quyidagi tartibda keltirildi:

Pedagogik kompetentlik

Kommunikativ kompetentlik

AKT va media kompetentlik

O'z o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash kompetentlik

Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentlik

Inkluziv ta'limni olib borish kompetentlik

O'quvchilarning kompetensiyalarini holisona baholash mahorati Yuqoridagi kasbiy kompetentlik talablari mazmunidagi o'ziga xoslikka asoslangan mezonlar har tomonlama ta'limdagi zamonaviylik va innovativlik, ta'limdagi xalqarolashuv, milliy dastur tamoyillariga asoslanib belgilab berilgan ko'rsatgich darajalari hisoblanadi.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda interaktiv usullar, mantiqiy munozaralar va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda turli

noan'anaviy texnologiyalardan foydalanish, munozara darslari, mediata'lim vositalarni keng qo'llash orqali ta'lim oluvchilarning bilimlarini oshirishda yuqoridagi kasbiy kompetentlik o'qituvchi uchun juda zarur hisoblanadi.

Tarixiy matnlar va manbalardan qadimgi yozuvlar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar foydalanish, o'quvchilarga tarixiy voqealarni tushunishda yordam beradi. Bu manbalarni qo'llab-quvvatlash, tarixiy ko'nikmalar va tushunchalarni kengaytirishda juda muhimdir. O'qituvchining sabr, bilim va fe'lni birlashtiradigan kuchli sifatlarga ega bo'lishi kerak. Tarixi fanini o'qituvchilar o'quvchilarga ilhom beradigan, ularni ilg'or qilib chiqadigan va fikr-mulohazalarni rivojlantiradigan insonlardir. O'zbekiston tarixini o'rgatish, vaqt o'tishi bilan to'qilgan boy madaniy gobelenning qiziqarli hikoyasini baham ko'rishga o'xshaydi. Bu o'quvchilarga o'z ildizlari bilan bog'lanishga, o'tmishdagi voqealar bugungi kunni qanday shakllantirishini tushunishga va O'zbekistonning rang-barang merosini qadrlashiga yordam beradi. O'zbekistonning murakkab tarixi bo'ylab sayohat qilish, shu bilan birga o'qituvchilarga qiziqish uyg'otish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash imkoniyatini beradi.

O'zbekiston tarixi fanidan pedagogik mahorat va metodika O'zbekiston tarixiga qaratilgan fandir. Bu fan o'quvchilarga o'z mamlakatining boy madaniy merosi va tarixiy o'tmishini tushunishga yordam berishi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik mahorat va metodikaning asosiy jihatlaridan biri talabalarga tarixiy ma'lumotlarni tadqiq qilish va tahlil qilishni o'rgatishdir. Talabalar birlamchi va ikkinchi darajali manbalarni qanday baholashni, shuningdek, tarixiy voqea va shaxslarni tanqidiy baholashni o'rganadilar. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar tarixiy mavzular bo'yicha yaxshi ma'lumotga ega fikr va dalillarni shakllantirishlari mumkin. Qolaversa, O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va g'urur tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ota-bobolarining erishgan yutuqlari va kurashlari bilan tanishish orqali o'quvchilar o'z madaniyati va merosiga chuqurroq munosabatda

bo'lishlari mumkin. Bu talabalarga o'z mamlakatlari bilan yanada bog'langanligini his qilishlariga va ularning ildizlari bilan faxrlanishlariga yordam beradi. Pedagogik mahorat va metodikaning yana bir muhim jihati talabalarga tarixiy voqealarning bugungi kunga ta'sirini o'rgatishdir. Talabalar O'zbekiston tarixini o'rganish orqali o'z mamlakatidagi dolzarb siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu talabalarga ongli qarorlar qabul qilish va jamiyatga ijobiy hissa qo'shish imkonini beradi. O'zbekiston tarixini o'rganish o'quvchilarda turli millat vakillariga hamdardlik va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston tarixini shakllantirgan turli madaniyatlar, an'analar bilan tanishish orqali talabalar boshqalarga nisbatan yanada inkluziv bag'rikenglik nuqtayi nazarini rivojlantirishlari mumkin. Bu jamiyatda birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlashga yordam beradi. Pedagogik mahorat va metodika talabalarga tanqidiy fikrlash, tadqiqot yozish kabi muhim akademik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tarixiy matnlar va manbalar bilan shug'ullanib, talabalar murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlashni o'rganadilar. Bu talabalarga boshqa fanlarda muvaffaqiyat qozonishlariga umumiy akademik ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi. Qolaversa, O'zbekiston tarixini o'rganish talabalarni kelgusida ta'lim olishi tegishli sohalarda martaba olish imkoniyatlariga ilhomlantirishi mumkin. Tarix va madaniyatga bo'lgan ishtiyoqni rivojlantirish orqali talabalar ta'lim, tadqiqot yoki muzey kuratorligi kabi sohalarda martaba izlash haqida o'ylashlari mumkin. Bu talabalar uchun o'z jamoalarida ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun qiziqarli imkoniyatlarni ochishi mumkin. Qolaversa, "Pedagogik mahorat va metodika" talabalarda muammolarni hal qilish, muloqot qilish jamoada ishlash kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Tarixiy mavzular, munozaralar bilan shug'ullanib, talabalar tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni, samarali muloqot qilishni ijodiy fikrlashni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalar bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan globallashtirilgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Umuman olganda, O'zbekiston tarixini pedagogik mahorat va metodika orqali

o'rganish yuqori sinf o'quvchilari uchun qimmatli boyitish tajribasi hisoblanadi. O'quvchilar o'z mamlakatining o'tmishini o'rganish orqali ularning ildizlarini chuqurroq anglash, milliy g'urur tuyg'usini, muhim o'quv va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishlari mumkin. Ushbu fan talabalarga jamiyatga ijobiy hissa qo'shish uchun jihozlangan, xabardor faol fuqarolar bo'lishga yordam beradi.

O'qituvchilar motivatsiyani oshirish uchun darslarda o'quvchilarni qiziqtiradigan, fikr-mulohazalariga izoh berishi va ularni tarix bo'yicha bilimlarga qiziqtirish usullarini qo'llash muhimdir. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda kasbiy bilim va malakalar, tarixiy ma'lumotlarga erishish, ularni tahlil qilish, tushunishga yordam berishi kerak. O'qituvchilar o'zlarining kasbiy bilim va mahoratlari orqali o'quvchilarga yaxshi tarixiy ta'lim berishlari kerak. Kasbiy rivojlanish, har bir o'qituvchining o'z kasbiy malakalarini rivojlantirish, yangi o'qitish metodlarini o'rganishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarga sifatli, samarali tarixiy ta'lim berishga yo'l ochadi. Tarix fanini o'rganuvchilar sabrli, fikr-mulohazalarni qo'llay oladigan tarixiy voqealar bilan aloqador hissiyatga ega bo'lishi kerak. O'qituvchilar esa har bir talabni uning kuchli yonlari boyicha o'rgatish va rivojlantirishga yondashishlari muhimdir. O'qituvchilar darslarda o'quvchilarga mos keladigan tarixiy materiallarni taqdim etish, ularni o'zlashtirish va tushunish uchun misollar va ko'rsatmalar bilan ta'minlash kerak. Bunday usullar o'quvchilar uchun tarixiy mazmuni o'zlashtirish, tushunishda yordamchi bo'ladi. O'qituvchilar motivatsiyasiga ko'ra, o'quvchilarga qiziqtirish hamda sodda tushunishlar o'qitishda katta o'rinnarga ega bo'ladi.

Shunchaki, qiziqish, yaratish, o'rganuvchilarni, o'zlashtiruvchini ilg'or usullar bilan o'qitishning asosiy qismi bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy malakasiga bo'lgan talab hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quvchilarning ongini shakllantirish, ularning o'sishi va rivojlanishida o'qituvchilarning o'rni katta. Shuning uchun o'qituvchilar talabalarni samarali jalb qilish, o'qitish uchun ma'lum darajadagi tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishlari juda muhimdir. O'qituvchilar talabalarning o'rganishini samarali baholashlari kerak. Ular o'quvchilarning muvaffaqiyatini o'lchash va yaxshilash

yo'nalishlarini aniqlash uchun turli baholash vositalari hamda usullaridan foydalanishlari kerak. Bu talabalarga konstruktiv fikr-mulohazalarni bildirish va o'quv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarga qo'shimcha ravishda, o'qituvchilar kuchli shaxslararo ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqot doirasida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshadigan innovatsion bilim, ko'nikma, tajriba va zahira intellektual qobiliyatlarning motivatsion-qadriyatli jihatlari majmuini o'zida aks ettiradigan hamda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatini taqdim etuvchisi integral kasbiy-shaxsiy tavsifi sifatida talqin qilindi. Ko'pchilik mualliflar innovatsion salohiyat tuzilmasining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatishgan: shaxsiy, motivatsion-qadriyatli va faoliyatga doir. Innovatsion salohiyat tuzilmasini bunday tarzda tushunish uning statik holatini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydarov S. O'zbekiston tarixi fani darslari samaradorligini oshirishda tasviriy san'at vositalarining roli. "Science and Education" Scientific Journal. 2020. Vol. 1, Issue 6. – P. 174-179.
2. Брагина Г.В. Мастерство учителя на уроке. – М.: Творческая педагогика, 1992. – 40 с.
3. Расулова З.Д. Технологии развития творческих качеств студентов. Наука и образования сегодня. 2021. –S. 34-37.
4. Teshayev A.T. Improving the methodology of teaching the subject "History of Uzbekistan" in the development of socially active civic competence of students. Vol. 1 no. 11 (2024): Conference on the role and importance of science in the modern world.
5. Teshayev A.T. Development of socially active civic competence of students based on the teaching of "History of Uzbekistan". International Journal Of History And Political Sciences, 4(06), 32–35. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume04Issue06-06>
6. Nargiza Dilova, Sodat Mardonova, Azizbek Teshayev and Lobar Halimovna. RETRACTED: Development issues of environmental culture in young people in globalization processes. Volume 116, 2024. BWFF 2024 – International Scientific Conference Ecological and Biological Well-Being of Flora and Fauna.
7. Teshayev A.T (2024). Innovatsion usullaridan foydalanish orqali talabalar dunyoqarashini rivojlantirish. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(5), 191–195. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/>
8. Teshayev A.T. Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish //Pedagogik mahorat – Buxoro, 2024. №3. – B.161-165. (13 00 00 №23)
9. Teshayev A.T. Akmeologik yondashuv asosida «O'zbekiston tarixi» fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali talabalarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini rivojlantirish modeli //Pedagogika jurnali 2024, 5-son, B. 33-36. (13 00 00 №6)
10. Teshayev A.T. "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish metodikasi mazmunini talabalarda faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish asosida takomillashtirish // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | № 14(51) B. 63-71. (13 00 00 №39)
11. Teshayev A.T. Talabalarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili //"Pedagogik akmeologiya"xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 4(12)2024. B.161-165. (13 00 00 №38)